



## AERVA LANATANING BIOEKOLOGIYASI VA YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI

<sup>1</sup>Raxmatullayeva D.

<sup>2</sup>Yaxshibekova G.

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI  
<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7962409>

### ARTICLE INFO

Received: 14<sup>th</sup> May 2023

Accepted: 22<sup>th</sup> May 2023

Online: 23<sup>th</sup> May 2023

### KEY WORDS

Lanset, ildiz, V tartib, qatlam, issiqxona, tadqiqot, Seylon, sug'orish, agrotexnika, o'lcham, floristik oblast, bioekalogiya, klassifikatsiya, intraduksiya yorug'lik.

### ABSTRACT

*Maskur maqulada aerva lanata o'simligiga qo'llaniladigan agro texnik chora-tadbirlari va o'simlikning qanday va qaysi soxalarda qo'llanilishi, biologik tasnifi va o'simlikning dorivorlik xususiyatlari, o'simlikning geografik tarqalishi, floristik joylashuvi hamda O'zbekiston Respublikasi sharoitida qanday omillar ta'sirida ko'paytirilishi haqida qisqacha ma'lumot berib o'tilgan*

### O'SIMLIKNING QISQACHA TASNIFI

Aerva lanata L. ko'p yillik, shoxlangan va bo'yi 55-70 sm ga yetadigan o't o'simlik. Barglari lantsetsimon, ovalsimon yoki ellipssimon, tekis qirrali bo'lib, qisqa bandi yordamida poya va shoxlarda qarama-qarshi joylashgan. Gullari mayda, och yashil rangli bo'lib, qisqa boshhoqsimon gulto'plamiga o'rnashgan. Urug'i yaltiroq, qora rangli. O'simlikning hamma qismi sertukli, kulrangda. Aerva lanata L. Afrika, Filippin, Hindiston, Janubiy Osiyo, va Seylonda tabiiy holda keng tarqalgan bo'lib ikki yillik o't o'simlik. Aerva lanata qumli tuproqlarda, cho'l tekisliklarida uchraydi. Butalar ostida ham o'sadi. Amarantaceae oilasiga mansub bu o't o'simlik O'zbekistonda bir yillik dorivor o'simlik sifatida o'stiriladi. Introduktsiya qilingan o'simliklarning tarkibi, A.L. Taxtadjyan tomonidan berilgan Yer sharining floristik oblastlari klassifikatsiyasiga binoan asosan 10 ta floristik oblastga mansubdir [1].

### TADQIQOT USLUBI.

O'simlikning bioekologiyasi va o'sish dinamikasini S. Kabulov, X.K. Matjanova, M.M. Orel [2] tomonidan taklif etilgan usullar bo'yicha amalga oshirildi. Tadqiqot Toshkent davlat agrar universitetining tajriba yer maydonida olib borildi.

Olingan natijalar. Tukli erva O'zbekistonda bir yillik o't o'simlik hisoblanadi. Ildiz tarmog'i chuqur emas (26 sm), oqish, ko'zga yaqqol tashlanmaydigan o'q ildizli, asosiy ildiz o'rnini bosuvchi nisbatan yirik, ikkinchi tartib tarmoqli ildizlari bor. Ildizlarning asosiy qismi tuproqning 3,5-8 sm qatlamida joylashgan. Ildiz tarmog'ining shoxlanish tartibi V tartibli shoxlanishgacha yetadi. Asosiy poyasi yog'ochlangan bo'lib, bo'yi 100 sm bo'lib, o'rtacha 70 sm ni tashkil etadi. Asosiy poya iyul oyining o'rtalarida o'sishdan to'xtaydi va shu davrda 2-3 tadan II-III tartibli novdalar hosil qiladi. Bir tupdagi ikkinchi tartibli novdalar soni 3 donadan



13 donagacha bo'lib, uzunligi 2 sm dan 53 sm gacha yetadi. Yaproqlari nashtarsimon-tuxumsimon yoki tuxumsimon-ellipssimon, uzunligi 2-3 sm, eni 0,5-1,5 sm qisqa bandli, chekkalari butun, uch qismi o'tkirlashgan yoki to'mtoq bo'lib, asosi ponasimon. Yaproqlar dastlab qarama-qarshi, keyin ketma-ket joylashib qalin tuklar bilan qoplangan. Poyaning quyi qismida yaproqlari yirikroq, yuqoriga borgan sari maydalashib boradi. To'pguli konussimon zich boshqoq tarzida bo'lib, qalin oqimtir tuk bilan qoplangan. Gullarining eni 2 mm, tashqi tomoni sertukligi tufayli kulrang-oqish, ichki tomoni esa och yashil. Urug'lari 0,6-0,8 mm, qora, yaltiroq.

## **KO'PAYTIRISH USULLARI**

O'simlikni ko'paytirishda urug'lardan foydalaniladi. Dastlab urug'lar kichik yashiklarda, issiqxonalarda ko'chat tayyorlanadi. Tayyorlangan ko'chatlar aprel oyida ochiq maydonlarda 60x40 sm da ekiladi. Ekilgan ko'chatlarning bo'yi 10-15 sm ga yetishi bilan ularning uchki qismi chikanka qilinadi. Chikanka qilishdan maqsad yon shoxlarni rivojlantirishdan iborat.

## **AGROTEKNIK TADBIRLAR.**

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tukli erva ekilganida soyada va oftobda ham rivojlanaveradi. Yetarli darajada sug'orib turilmasa yaproqlar yuzasi kichrayadi, o'simlik erta gullay boshlaydi, poyasi o'sishdan to'xtaydi, yon novda o'sishi kuzatilmaydi. Dalalardagi bosh o'simlik ekinzorlarida, ko'chat sifatida o'stirilganida, to'kilgan urug'lardan chiqqan o'simliklar ko'p uchrasada, ularning urug'i pishishga ulgurmaydi.

Ko'chat yetishtirish uchun fevral oxiri - mart boshlarida issiqxonalarda 18-24 daraja haroratda 60x25 sm o'lchamli, balandligi 25 sm bo'lgan taxta qutilarga urug' ekiladi.

Qutilar tubiga drenaj uchun keramzit yoki mayda shag'al (1-2 sm o'lchamli), ustidan yirik donador qum solinadi. Uning ustiga quyidagi tarkibli oziq beruvchi tuproq to'shaladi: chirigan barglar, chirigan go'ng, qum (nisbati 1:1:0,5). Urug'ni yerga ekish mumkin, lekin bunda suv oziqlantiruvchi tuproqda to'planib kolmasligi uchun drenaj bo'lishi kerak. O'simlik 12 metr yerga 0,5 g urug' sarflanadi. Urug' 1-1,5 mm. chuqurlikka qadaladi. Ekinzor har kuni leykadan sug'oriladi va maysa hosil bo'lguniga qadar yer usti nam holatda saqlanadi. Urug' ekilganidan 6-10 kun keyin maysa una boshlaydi.

Sug'orish soni sekin asta kamaytirib boriladi va 10-15 kundan keyin xaftasiga 2 martagina sug'oriladigan bo'ladi. Tez-tez sug'organda tuproq yuzasida suv o'tlar paydo bo'ladi va erva maysalari nobud bo'lishi mumkin. Pushtalar 50-60 sm oraliqda olinadi, ko'chatlar bir-biridan 15 sm masofada ekiladi, shunda bir gektar maydonga 60-70 ming dona ko'chat sarflanadi.

Bir juft chin barg o'sib chiqqach ko'chatlar qutilarga bir-biridan 3-5 sm oraliqda ko'chirib o'tkazildi. Ko'chatlarning tutishi 90 % gacha bo'lishi ko'zatildi. Kunduzi issiqni saqlab qolishi uchun tunda sug'oriladi. Tuproq harorati 18-20 daraja bo'lganida aprel oyi oxiri - may boshlarida o'simlik maysalari unib chiqadi. Maysalar juda nozik bo'lganligidan ularni parvarish qilish 3-4 juft chin barg hosil bo'lganidan keyingina boshlanadi. Tukli erva ekinzorlari mavsum davomida 9-10 marta (may-avgust-2 tadan, sentyabr-1, oktyabr-1) sug'oriladi. Hosildorlik gektar hisobiga yer ustki qismi 13-15 sentner va urug' 0,5-0,6 sentnerni tashkil etadi.

## **XULOSA**



Shunday qilib, Aerva lanata O'zbekiston sharoitida urug'lari issiqxonalarda yetishtirilib kuchatlar aprel oyida ochiq maydonlarda 60x40 sm sxemada ekilsa maqsadga muvofiq bo'ladi.

### References:

1. Axmedov U., Ergaev A., Ablazov A., Yulchiev M. dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi. Toshkent 2009 105 S.
2. Zakirov P.K., Myasnikova L. Lekarstvennyye rasteniya tugaev Uzbekistana i perspektivy ix ispol'zovaniya // Sb. nauch. trudov Instituta botaniki AN UzSSR. –Tashkent, Fan, 1979. –S. 3-24.
3. Kabulov S., Matjanova X.K., Orel M.M. Sposob otsenki soleustoychivosti rasteniy // Gosudarstvennoe patentnoe vedomstvo RUz. Svidetel'stvo № IDP 04642. 05.01.2001.